

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA QOFIYADOSHLIK
SAN’ATLARI**

Tursunova Naimaxon Murolimjon qizi

Andijon Davlat Universiteti

Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 1-kurs magistranti

E-mail: naimaxontursunova3@gmail.com

Tel: +998882801936

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21155203>

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur she’riyatidagi qofiyadoshlikka asoslangan lafziy san’atlarning badiiy-estetik vazifalari tadqiq etiladi. Tadqiqot obyekti sifatida shoir g‘azallari, ruboiylari va masnaviylarida qo‘llanilgan tarse’, zulqofiyatayn, zulqavofiy, musajja va qalbul qofiya kabi badiiy vositalar tanlab olingan. Maqolada Shayx Ahmad Taroziy, Atoulloh Husayniy kabi mumtoz adabiyotshunoslarning nazariy qarashlari asosida Bobur ijodidagi ushbu san’atlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mumtoz she’riyatning poetik qurulishi va Bobur lirik merosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, mumtoz poetika, lafziy san’atlar, qofiya san’atlari, tarse’, zulqofiyatayn, zulqavofiy, musajja’, musalsal qofiya, tazmini muzdavaj.

Abstract: This article examines the artistic and aesthetic functions of rhyme-based verbal literary devices in the poetry of the great poet and statesman Zahiriddin Muhammad Babur. The study focuses on such poetic devices as tarse’, zulqofiyatayn, zulqavofiy, musajja’, and qalb al-qafiya employed in the poet’s ghazals, rubā’īs, and masnavīs. Based on the theoretical views of classical literary scholars such as Shaykh Ahmad Tarazi and Ataullah Husayni, the article analyzes the distinctive features and poetic functions of these literary devices in Babur’s works. The findings contribute to a deeper understanding of the poetic structure of classical poetry and the artistic characteristics of Babur’s lyrical heritage.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, classical poetics, verbal literary devices, rhyme-based poetic devices, tarse’, zulqofiyatayn, zulqavofiy, musajja’, qalb al-qafiya, musalsal rhyme, tazmin-i muzdavaj.

Аннотация: В данной статье исследуются художественно-эстетические функции словесных поэтических приёмов, основанных на рифмовке, в творчестве великого поэта и государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура. В качестве объекта исследования выбраны такие художественные средства, как тарсе’, зулькофиятайн, зулькавофий, мусадджа’, кальб аль-кафия, использованные поэтом в газелях, рубаи и маснави. На основе теоретических взглядов классических литературоведов Шейха Ахмада Тарази и Атауллы Хусайни анализируются специфические особенности данных поэтических приёмов в произведениях Бабура. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию поэтической структуры классической поэзии и лирического наследия Бабура.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур, классическая поэтика, словесные художественные приёмы, рифменные искусства, тарсе’, зулькофиятайн, зулькавофий, мусадджа’, мусалсалная рифма, тазмин-и муздаваж.

Mumtoz poetika ilmi aruz, ilmi qofiya va ilmi badia kabi sohalardan iborat bo‘lib, qofiyadoshlikka asoslangan badiiy san’atlar bevosita qofiya nazariyasi va badia ilmining

o‘zaro kesishuv nuqtasida shakllangan. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi she’riy san’atlarga, xususan, qofiyadoshlikka asoslangan badiiy vositalarga boyligi bilan ajralib turadi. Mumtoz adabiyotda qofiya nafaqat shakliy unsur, balki mazmun va ohangni kuchaytiruvchi muhim badiiy omil hisoblanadi. Qofiyadoshlikka asoslangan san’atlar shoir she’rlarida musiqiylik, ohangdorlik va mazmuniy uyg‘unlikni ta’minlagan. Bobur qofiya san’atlaridan ijodining turli janrlarida badiiy vazifalarda foydalangan.

Tarse’ – san’atiga deyarli ilmi badiaga doir barcha risolalarda birinchi sharh beriladi. Shayh Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida quyidagicha ta’rif beradi: Tarse’– lug‘atta oltun, kumushga javohirni o‘rnatmoqni ayturlar. Va istiloh birla tarse’ ul bo‘lurkim, har kalimakim, avvalgi misrada kelur, so‘nggi misraning har kalimasin ul kalimalarning muqobalasinda kelturub, vazn birla muvofiq va lafz birla, muttafiqlar va ohir harf birla muttahid qilurlar, netokkim, “Kalomi majid” va “Furqoni hamid” ta kelubtur:

Innal-abrora lafi na’im
Va innal-fujjora lafi jahim”

Bundan anglashiladiki, tarse’ san’atida har ikkala misradagi so‘zlar o‘zaro teng, qofiyadosh va vazndosh bo‘lishi kerak. Ayrim arab olimlari bu san’atni sajning bir turi deb atashgan. To‘xtamurod Boboyev tilida aytganda “o‘z sherigi” bilan kelishidir, tarse’ baytlarni shunday ziynatlaydiki, uning musiqiyliigi va ohangdorligi ortadi, kitobxonni tezroq eslab qolishiga yordam beradi. Atoullloh Husayniy ham “Badoyi’us sanoye” asarida tarse’ni lafziy san’atlarga bag‘ishlangan qismining boshida keltiradi. Quyida Bobur ijodiga mansub tarse’ san’ati asosida yozilgan baytlarni ko‘rishimiz mumkin:

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

Ijodkor yoriga vafodor, sadoqatli va unga muhtoj ekanligi, bunday inson topilmasligi va yorining esa unga azob beruvchi ekanligini, bu darajadagi jafokor ham topilmasligini kitobxonga tarse’ san’ati yordamida ifodalab bergan. Bu bayt tarkibidagi *sendek mendek, bir bir, menga senga, yori zori, jafokor vafodor, topilmas topilmas* juftliklari tarse san’atini shakllantirgan.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yamon bo‘lsa, jazo topqusidur.
Yoki:

Ko‘rdung dog‘i ko‘zushta giriftor etting.
So‘rdung dog‘i so‘zushta giriftor etting.
Bu tab‘u kamoling bila o‘z boshing uchun,
Boshdin meni o‘zungga giriftor etting.

Yuqoridagi Boburning ruboyi janriga mansub belgilab ko‘rsatilgan baytdagi juftliklar o‘zaro vaznda, qofiyada tengdir. Shoir tarse’ san’atini masnaviy janrida ijod qilish mobaynida ham qo‘llagan:

Habib bo‘lsa edi, yo raqib o‘lsa edi,
Raqib o‘lsa edi, yo habib bo‘lsa edi.
Bobur bu misralarda qarshi tarafning yo *habib do‘st* yo *raqib dushman* ya’ni har ikkisidan biri bo‘lishini xohlaydi. *Habib raqib, bo‘lsa o‘lsa, edi edi, yo yo, raqib habib, bo‘lsa o‘lsa, edi edi* so‘zlari tarsega misol bo‘la oladi.

Zulqofiyatayn – arabcha soʻz boʻlib, “ikki qofiyalik” degan maʼnoni bildiradi. Odatda bir bayt tarkibida faqat bir qofiya ishtirok etsa, zulqofiyatayn sanʼatini qoʻllagan ijodkor endi bir baytda ikki qofiya yaratadi. Zulqofiyataynning ikki koʻrinishi mavjud boʻlib, biri mutakkarrin, ikkinchisi mahjub qofiyadir. Mutakarrin qofiya bu qofiyadosh soʻzlarning misralar yakunida ketma-ket kelishi boʻlsa, mahjub qofiya esa qofiyalarning misralarda turli oʻrinlarda kelishidir. Zahiriddin Muhammad Bobur gʻazaliyotida zulqofiyataynning har ikkala koʻrinishi ham mavjuddir.

Soʻzlab ul laʼli shakarxoni shakarrez etasen,
Ochib ul zulfi sumansoni dilovez etasen.

Shoir baytda zulqofiyataynning mutakkarin qofiya turini qoʻllagan, *shakarxon*, *sumanson* va *shakarrez*, *dilovez* soʻzlari oʻzaro qofiyadoshdir. Zahiriddin Muhammad Boburning masnaviy janriga oid baytlarida mahjub qofiyaga asoslangan sanʼatlar bisyordir:

Qolgʻon koʻnglumni olgʻasen bot,
Olgʻon nazaringni solgʻasen bot.
Yoki:

Ne balo, berding intizor manga,
Koʻp jaf o qilding, ey nigor, manga.
Va:

Nechakim, qildim vafo, koʻrdum jaf o,
Nechakim, koʻrdum jaf o, qildim vafo.

Zulqavofiy – arabcha soʻz boʻlib, “koʻp qofiyalik” degan maʼnoni bildiradi. Unda bir bayt tarkibida uch va undan ortiq qofiyalar ishtirok etadi. Baʼzan zulqavofiy muvozan sanʼati bilan ham uygʻunlik kasb etishi mumkin:

Sen husn sariri podshohi!
Men ishq faqiri dodxohi!

Bu misralarda sen men, sariri faqiri, podshohi dodxohi soʻzlari yordamida zulqavofi sanʼati shakllangan. Quyidagi misralarda esa dur hur, gul mul, rayxon miynon soʻzlari qofiyadoshlikka hizmat qilgan:

Tishing – dur, labing – marjon, hading – gul, xating - rayxon
Yuzing – hur, soching – anbar, soʻzung – mul, menging - miynon.

Qofiyadoshlikka asoslangan sanʼatlardan yana biri bu boshqofiyadir. **Boshqofiya** – qofiyadosh soʻzlarning misralar boshida kelishidir. Bobur quyidagi gʻazalida boshidan ohirigacha boshqofiya sanʼatidan foydalangan:

Shoh Sulton Uvays binni Mahmud,
Moh Sulton Uvays binni Mahmud.

Qaddi ogʻzingdin ayru tortarmen -
Oh, Sulton Uvays binni Mahmud.

Meni yod ayla bazmi ishqingda,
Goh, Sulton Uvays binni Mahmud.

Xushturur hamrahim agar sensen –
Rox, Sulton Uvays binni Mahmud.

Podshahdur agarchi Bobur lek,

Shoh, Sulton Uvays binni Mahmud.

Boshqofiyadan foydalangan ijodkorning she’rlarida musiqiylik, she’riy ravonlik, o’ynoqilik yuzaga keladi. Bu san’atga namunalarni Boburning ruboyilar janrida ham ko’rishimiz mumkin. Masalan:

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,

Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Sarrishtayi ayshdin ko’ngulni zinhor,

Uz oh, Zahiriddin Muhamrnad Bobur.

Yoki:

Shohim sanga ma’lum emastur, ne qilay,

Ohim sanga ma’lum emastur, ne qilay?

Men yuz, qoshing dermen-u sen — badr-u hilol,

Mohim, sanga ma’lum emastur ne qilay?

Musalsal qofiya – so’zma-so’z “zanjirli qofiya” degan ma’noni bildiradi. Musalsal san’atida shoir she’rdagi barcha misralarni shunday qofiyalaydiki, natijada birorta misra qofiyasiz qolmaydi, ya’ni barcha misrani qofiya bilan bezaydi. Mazkur san’atni asosan Bobur ruboiylarda uchratishimiz mumkin. Masalan, quyidagi ruboiyda *nob*, *mehrob*, *asbob* va *tob* so’zlari qofiyadosh bo’lgan:

Ne ishratu aysh uchun mayi nob manga,

Ne toat uchun go’shai mehrob manga,

Ne fisq qilurg’a bordur asbob manga,

Ne zohid o’lurg’a toqatu tob manga.

Yoki:

Ey qomati sarvu lablari obi hayot,

Budur tilagimki, yetkamen vaslingga bot!

Hajringda manga ne sabr qoldi, ne sabot,

Yo kel bu sorig’a yo meni o’zungga qot!

Yuqoridagi baytda shoir yorining go’zalligini tasvirlaydi uni “sarvdek qomati”, “hayot suvidek lablari” deya madh etadi. Uning yagona orzusi yorga yetishishdir. Hijron azobidan sabr va toqat qolmagan, shuning uchun yordan kelib, uni bu g’amdan qutqarishini, yoki o’zini olib ketishini so’raydi, bu misralarda *hayot*, *bot*, *sabot*, *qot* so’zlari qofiyadosh bo’lib kelgan.

Musajja – bunda bir bayt to’rtga bo’linadi, birinchi, ikkinchi va uchinchi qism o’zaro qofiyalanadi, to’rtinchi qism esa qofiyalanmaydi. Buning amaliy isboti sifatida Bobur g’azallarining birida ko’rib chiqamiz:

Qaro zulfung firoqida parishon ro’zgorim bor,

Yuzungnung ishtiyorida ne sabru ne qarorim bor.

Labing bag’rimni qon qildi, ko’zumdin qon ravon qildi,

Nega holim yamon qildi, men ondin bir so’rorim bor.

Jahondin manga g’am bo’lsa, ulusdin gar alam bo’lsa,

Ne g’am yuz muncha xam bo’lsa, seningdek g’amgusorim bor.

Agar muslixmen, gar mufsid va gar oshiqmen, gar obid,

Ne ishing bor sening, zohid, meningki ixtiyorim bor.

Fig'onim oshti bulbuldin, g'ami yo'q zarra bu quldin,

Base, Bobur, o'shal guldin ko'ngulda xorxorim bor.

Yuqoridagi g'azalda ham baytlar to'rt qismga bo'linib, uch qism o'zaro qofiyalangan: 2-misrada *qon, ravon va yamon*, 3-misrada *g'am, alam va xam*, 4-misrada *mufsid, obid va zohid*, 5-misra *bulbuldin, quldin va guldin* so'zlari qofiyadoshlikka asoslangan musajja san'atini shakllantirgan. Yoki:

Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,
Necha qilursen jomima bedod?

Sen kibi purkor, shevasi bisvor,
Bilmadi, ey yor, hech kishi yod.

Javrda nodir, zulmda mohir,
Ishvada godir, g'amzada ustod.

Yor g'amidin, hajr alamidin,
Sabr kamidin nolayu faryod!

Boburi bedil, ey buti qotil,
Javrunga moyil, zulmunga mu'tod.

Tazmini muzdavaj – san'atining asosiy qoidasi qofiyadosh va ohangdosh so'zlarning yonma-yon kelishidir. Atoulloh Husayniy bu san'atga “tazmini muzdavaj” deb nom beradi. Bu so'zlarning lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tsak, tazmin “bir nimani bir nimaning orqasiga qo'ymoq”, muzdavaj “juftlashgan” degan ma'nolarni bildiradi. Quyida esa Bobur qalamiga mansub she'rlarda bu san'atning go'zal namunalarini ko'rishimiz mumkin:

Xushturur visoli yor, anda bo'lmasa dayyor,
Bo'lsa vasl beag'yor davlatu saodat tut! -
Va:

Chog'ir bag'ir qonidur barcha ishq ahlig'a,
Zihi alarki, bu maydin dame oyilmishlar.
Yoki:

A'zoyu javohiringni hozir qilg'il,
Jon birla ko'ngul hoziru nozir qilg'il.
Har lahza bir andishayu bir fikrni qo'y,
Andishayu fikringni borin bir qilg'il.

Mulamma – “yarqiroq”, “yarqiratirgan” degan ma'noni bildirib, shoir she'rda qofiya uchun bir emas, ikki yoki uch tildagi so'zlardan qo'llansa mulamma san'ati shakllanadi.

Boshda gar yo'qtur jalolat gavharidin afsare,
Yonima basdur mazallat tufrog'idin bistare.

Kirgali ko'ksun aro ko'nglum ishi kuymakdurur,
Men nechuk kuymayki, ko'ksun ichra bordur axgare.

Sabru hushu aklu dinimni olibtur, naylayin,
Sarvqadde, gulruhaye, rayhonxate, nasrinbare.

Kirpidek xanjarin el ko'ksiga ko'rgan zamon,
Ko'zuma har kiprikin, yo Rabki, qilg'il xanjare!

Abrashini yeldurub yetgach yiqildim, do'stlar,
Ohkim, umrum daraxtini yiqitti sarsare.

Ganji husnida ko'rung zulfi bila gulgunasin,
Go'yo o't soldi har yon ganj uzra ajdare.

Hajr shomidin mening qon yutmog'imni yod eting,
Cheksangiz ul nozanin birla sabuxiy sog'are.

Har nechuktur umrni, Bobur, xush o'tkarmak kerak –
Kim, bu besh kun umr g'amgin bo'lg'ali qilmas gari.

Yuqoridagi misralardagi qofiyalar ikki tildan arabcha va forschadan olingan. Qofiya sifatida olingan afsare istare, axgare, nasrinbar, ajdare, sog'are, gari so'zlari forschadan olingan bo'lsa, xanjare, sarsar so'zlari esa arabchadir. G'azal boshidan oxirigacha oshiq qalbidagi iztirob, jon kuydiruvchi ishq o'tining kuchi, ayriliq azobi va oxirida esa hayotga nisbatan chuqur mulohaza – umrni chiroyli o'tkazish zarurati bilan yakunlanadi.

Qalbul qofiya – san'atida birinchi misrada ohangdosh va qofiyadosh so'zlar birin-ketin kelib, ikkinchi misrada esa o'sha so'zlarning o'rni almashgan holda keladi. Masalan:

Ko'ngilga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,
Shikasta ko'ngluma ermish qaro balo soching.

Yuqoridagi baytning birinchi misrasida kelgan balo va qaro so'zlari ikkinchi misrada o'rni almashib birin-ketin kelmoqda.

Quyidagi baytda ham shoir dunyoda sendek menga ozor beradigan yor yo'q, men kabi senga sadoqatli oshiq ham topilmaydi deyish orqali qalbul qofiya san'atiga yana bir go'zal namuna yaratgan:

Sendek menga bir yori jafakor topilmas,
Mendek senga bir zori vafodor topilmas.

Tavsim – bu san'atda e'tirof etilgan insonning ismiga uyg'un tarzda qofiyadosh so'zlar keltiriladi. Bu san'at haqida bir qancha risolalarda ham ma'lumotlar berilgan. Atoulloh Husayniy, Husayn Voiz Koshifiylar tavsimsan'ati haqida so'z yuritib, unga namunalar keltirishgan. Xususan, Atoulloh Husayniy shunday yozadi: “Tavsim uldurkim, qofiyani andoq harf asosida tuzurlarkim, madh etilguchining nomin yoki she'r maqsadidagi bir nimani o'zga bayt ohirida qo'ysalar, o'shul tarzda voqi' bo'lur.” [Atoulloh Husayniy, 1981: 120]

Quyida esa Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub ruboyidan namuna:

Yuz hamd angakim, hamdin aning ahli maqol,
Yuz yil desalar tugatmagi amri mahol.
Vasfida xirad ojiz erur, notiqalol,
Ne nav' sifat qilay oni Jalla Jalol.

“Jalla Jalol” – bu Alloh taolo ning ismlaridan biri bo'lib, qolgan misradagi so'zlar shu ismga qofiyalangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida qo'llanilgan badiiy san'atlar shoirning so'z qo'llash mahorati yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.



Bobur she’riyatidagi bu nafis ifoda usullari va ohangdorlik o‘zbek tilining naqadar boy, teran va go‘zal imkoniyatlarga ega ekanligini namoyon etadi. Shoir nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki o‘zining ilmiy va badiiy merosi bilan jahon tamadduni rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk siymolardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anvar Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: “Sharq”, 1999.
2. Anvar Hojiahmedov. She’r san’atlarini bilasizmi?. – Toshkent: “Sharq”, 2001.
3. Anvar Hojiahmedov. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: “Sharq”, 1998.
4. Atoulloh Husayniy. Badoyi’us sanoyi’ .- Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashiryoti, 1981.
5. Orzigul Hamroyeva. Mumtoz qofiya nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Bookmany Prient”, 2022.
6. To‘xtamurod Boboyev. She’r ilmi ta’limi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Sochining savdosi tushdi. – Toshkent: “Sharq”, 2007.
8. Shayx Ahmad Ibn Xudaydod Taroziy. Funun ul-balog‘a. – T.:Xazina, 1996.